

**TEMURIYLAR DAVRIDA TERMIZ**

*Xurramov Xamid Boboqul o'g'li, Termiz davlat universiteti  
tayanch doktoranti*

**TERMEZ DURING THE TIMURID PERIOD**

*Khurramov Khamid Bobokul ogli, Doctoral student at Termez  
State University*

**ТЕРМИЗ В ПЕРИОД ТЕМУРИДОВ**

*Хуррамов Хамид Бобокул оглы, докторант (PhD)  
Термезского государственного университета*



<https://orcid.org/0009-0004-4635-3327>  
e-mail:  
[xamidxurramov800@gmail.com](mailto:xamidxurramov800@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Temuriylar davrida Termizning tutgan o'rnini va madaniyatini, ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o'rganish maqsad qilingan. Shaharning qayta qurilishi, atrof joylarning obod etilishi haqida batafsil fikr yuritiladi. Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo kundaliklarida shaharning aks etilishi bayon etiladi. Shaharning Xalil Sulton buyrug'iga ko'ra Amir Ollohdod tomonidan qayta qurilishi eslab o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** Termiz, Amir Temur, Xalil sulton, Jayxun, Samarqand, Rui Gonzales de Klavixo, Temuriylar.

**Abstract:** This article aims to study the place and culture of Termez during the Timurid era, its socio-economic life. The reconstruction of the city and the development of the surrounding areas are discussed in detail. The city is described in the diaries of the Spanish ambassador Rui Gonzalez de Clavijo. The reconstruction of the city by Amir Allahdod on the orders of Khalil Sultan is mentioned.

**Keywords:** Termez, Amir Temur, Khalil Sultan, Djaikhun, Samarkand, Rui Gonzalez de Clavijo, Temurids.

**Аннотация:** Целью данной статьи является изучение положения, культуры и социально-экономической жизни Термеза в эпоху Тимуридов. Подробно рассматриваются вопросы реконструкции города и благоустройства прилегающих территорий. Город описан в дневниках испанского посла Руи Гонсалеса де Клавихо. Город увековечен реконструкцией города эмиром Аллахдодом по приказу Халил Султана.

**Ключевые слова:** Термез, Амир Темур, Халил Султан, Джайхун, Самарканд, Руи Гонсалес де Клавихо, Темуриды.

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).** Termiz shahri qadim o'tmishdan yuksalib, ravnaq topib kelgan shahardir. Bu shahar tarixiga ko'plab tarixchilar to'xtalib, uning obod shahar ekanligini ta'kidlab kelishadi. Termiz shahri tarixiga to'xtalib o'tsak, "Termiz" so'zi forscha Tarmid, qadimiy eroncha

"taramaida" – "o'tish qismi" degan ma'noni bildiradi. Hofizi Abruning yozishicha, shahar nomi "Taramastxa" (baqtriycha "narigi sohildagi manzil") so'zidan olingan bo'lib, asrlar davomida turlicha atalib kelgan. X asrdan Termiz deb atala boshlagan. Shu jumladan Klavixo asarida shunday bayon qilinadi: Amir Temur Xuroson saltanatini ham zabt

etmoq uchun daryoning berigi sohiliga o'tishni istaydi va daryoda qayiqlar ustida yog'och ko'prik qurdiradi, o'z odamlari bilan narigi sohilga o'tib olgach, ko'prikni buzib tashlatadi. U Samarqandga qaytayotganda yana ko'prikni qurdiradi. Elchilar ham shu ko'prikdan o'tadilar. Ko'prik daryoning bir qirg'og'idan boshlanib, ikkinchisiga yetmagan va anchagina masofaga davom etib, ot va chorva kechib o'tishi mumkin bo'lgan joyga kelib tutashgan. Bu yerdagi ko'prik va daryo yonida Aleksandr Eron shohi Doro bilan jang qilib, uni mag'lub etgan. Elchilar daryo bo'yiga kelib, payshanba kuni daryoning narigi qirg'og'iga o'tib, shu kuni kechqurun Termiz degan katta shaharga yetib keldilar. Shahar ilgari Kichik Hindiston (Afg'oniston) qaramog'ida bo'lib, Temurbek zabt etgandan keyin bu shahar Samarqand saltanatiga qaraydi[1]. Ana shu daryodan Samarqand saltanati boshlanadi. Bu yerdagilar chig'atoy tilida so'zlashadilar. Bu tilni daryoning u tomonidagi odamlar tushunmaydi, chunki ular bir-birlari bilan forsha gaplashadi, lekin berigi sohilda yashovchilarning tili bilan fors tili o'rtasidagi farq juda kam. Samarqandliklar qo'llayotgan yozuv berigi sohildagilar yozuvi hisoblanadi. Samarqandda chig'atoy yozuvini o'qiydigan va yozadigan bir necha mirzo bor. Samarqandda aholi zich joylashgan, tuprog'i serunum va hamma narsa serobdir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ИИТЕПАТРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** Sohibqiron farmoyishiga binoan amal qiladigan udum bor: daryoning bu qirg'og'idan ikkinchi qirg'og'iga o'tgach, ko'prik Sohibqironidan boshqa hech kim o'tmasligi uchun buzib tashlanadi. Yo'lovchilarni u qirg'og'idan bunisiga qayiqlar olib o'tadi. Saltanatdan kelayotgan kishi qayoqqa borayotganligi qayd etilgan yorliqni ko'rsatmasa, berigi sohilga o'tkazilmaydi, aksincha Samarqandga hech bir hujjat ko'rsatmasdan o'tish mumkin. Qayiqlarga ko'plab qorovullar tayinlangan bo'lib, o'tuvchilardan katta boj olinadi. Daryo bo'yiga bunday qorovullarning qo'yilishining sababi bor: Samarqand saltanati aholisini ko'paytirish uchun boshqa mamlakatlardan ko'plab asirlar olib kelgan, qorovullar asirlar o'z mamlakatiga qochib ketmasliklari uchun daryo bo'yini qo'riqlab turadilar. Sohibqiron farmoyishi bilan ish ko'rgan kishilar Eron va Xuroson yerlarida uy-joysiz, yetim-

yesir, qashshoq va bechoralarni tutib olib, Samarqandga jo'natganlarini elchilar ham ko'rdilar[2]. Ular kelishgach, joydagi hokimlar Sohibqiron farmoyishiga ko'ra, oziq-ovqat bilan ta'minladilar. Termiz shahri devor bilan o'ralmagan, sersuv va atrofi ko'plab bog'lardan iborat. Shahar haqida men sizga aytishim mumkin, bizga ajratilgan binoga shu qadar ko'p yo'l yurdikki, holdan toyib charchadik. Biz har xil narsalar bilan savdo qilayotgan gavjum maydon va ko'chalardan yurdik. Bu shaharda elchilar izzat-ikrom ko'rsatilib, shohona to'nlar taqdim etildi.

Sohibqiron tomonidan, elchilarga yo'llarda qanday hurmat ko'rsatilayotgani, safarlari qanday kechayotgani, ahvollari qanday ekanligini bilib kelish uchun jo'nayotgan chopar ham shu yerga keldi. Chopar qaytib ketayotganda, elchilar unga kimxob to'n, shuningdek, o'zlari bilan kelayotgan yasovulga ham Florensiyada tikilgan libos sovg'a qildilar.

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).** Temuriylar davrida Termizda katta obodonchilik ishlari olib borilganidan bilsak bo'ladiki, shahar Temuriylar davrida asosiy ahamiyat kasb etgan. Shu o'rinda Xalil Sultonning Termizni qayta qurishga bel bog'lab, 810-yilning safar (iyul-avgust, 1407) oyida Xalil Sulton qo'shinlaridan bir toifa yuborib, ularni Ollohdodga qo'shdi va yana ularga askarboshilaridan Ilyosxo'ja, Ibn Qumari Mansur, Tavakkul Qarqaro, Davlat Temur va boshqalarni ularga birlashtirib, Termiz shahrini tiklashga jo'natdi. Ular yura-yura nihoyat Termizga yetib keldilar va darhol o'z ehtiyojlariga yarasha tosh, yog'och va g'ish jamlashga kirishdilar. Keyin o'sha boshchilar shahar badanlarini o'zaro taqsim qilib olib, shahar devorlari ozligi sababli, ularni baland qilib ko'tardilar. Ular hech bir sustkashlik qilmay ishlardilar va undagi har tepalikda ermak uchundek belgi bino qildilar. Ular kunduzi taomni, kechasi uyquni tark qildilar va shahar qurilishini o'n besh kun chamasida tamomladilar. Qachonki ular shahar mahallalarini belgilab, o'tish joylari-yu yo'llarini ajratgach hamda shahar masjidleri va manorleri alam (belgi)larini ko'tarib, bozorleri va uylari mavzelerini aniq qilgach, shahar ahlidan ko'chib ketganlar avlodlaridan qolganlariga va uning xarobaligi egri-bugrisidan obodonligi tekisligiga ketkanlarga shaharga qaytishlarini va unda chodirlar tikib o'tirishlarini amr qildilar[3].

O'sha miskinlar u yerlaridan bo'stonlarni vatan tutib, ularda bozorlar va uylar bunyod qilgan va ularga istiqomat vositalari va tirikchilik ashyolarini to'plagan bo'lib, shu ahvolda Chingizxon davridan Temur Ko'ragon zamonigacha davom etardilar. Ular o'zlarining bu Vatanlarida osoyishta bo'lib, tartibsizlik va bezovtaliklaridan bexavotir edilar. Qachonki Temur o'lib, har xil yomonliklar va turli ishlar sodir bo'lgach, Xalil Sulton ularni himoya qilishni iroda etdi va shu sababdan ular qo'rg'onlarini mustahkam qiladigan kishilarni yubordi.

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Yangi (shahar) eski (shahar) dan bir farsax chamasida (uzoqlikda) edi. Natijada eskisi yangisidan ko'ra husnliroq va mustahkamroq bo'lib qoldiki, ayniqsa bu quruvchilar uning manorini baland ko'targandan keyin. Eski shahar yangi farq qilib Jayxun daryosi uning devorlarini ko'tarib turgan baland tog' etaklari bilan ko'rishib o'tadi. Yangi shahar maskanlarining qasrlari esa mustahkam bo'lmagan holda daryodan ham uzoqda edi. Qachonki quruvchilar odamlarga: "O'z qaroringiz uyiga kiringizlar" deb nido qilganlarida go'yo ularga o'zingizni o'zingiz o'ldiringlar yoki uylaringizdan chiqinglar deb aytilgandek bo'ldi [5].

Oллоhdod ularga hech bir mushkullik keltirmadi va bu borada u sira tashvishlanmay, ortiqcha e'tibor ham qilmadi, qaysarlik ham ko'rsatmadi. Ammo u odamlarni to'plab: "Agar shahar ahli kimda-kim bu yangi imoratlar va makonlardan qay biriga oldin qo'l uzatsa, hech bir nizosiz, to'sqinligu qarshiliksiz u joy o'sha (kishi)nikidir", - deb chaqirtirdi. Keyin u novvoylar, qassoblar, oshpazlar va yog'furushlarga (eski shaharga) ko'chib o'tishlarini buyurib, ularga (alohida) manzillar-u boshpanagohlar ajratib berdi boshqalarga tegmadi. Keyin ular (shahar ahli) askarlar bilan oldi-sotdi aloqalariga kirishib, bundan zarar ko'rmasdan foyda qildilar. Natijada, qolgan jamoaning nizomi buzildi, chunki inson tabiatan madaniy. Zarurat qolganlarni o'z ixtiyorlari bilan o'sha ko'chib ketganlar ketidan ergashtirdi. Shunda

Oллоhdod ulardan har bir katta-yu kichikning ahvoliga loyiq (narsa)ni ulashib, o'z amrlari taqozosiga ko'ra (ular) ishlari qoidalarini qaror toptirdi. Keyin u o'z qo'shinboshilarini to'plab, Samarqandga qarab qaytdi[4].

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Temuriylar davrida Termizning har tomonlama ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti yuksaldi. Klavixo kundaliklarida eslaganidek shahar ichida kezib charchaganligidan shahar qay darajada katta bo'lganligini bilib olsak bo'ladi. Keyingi davrda shaharning qayta qurilishi va obod maskanga aylanganligi va tanga pul zarb etiladigan zarbxona bo'lganligi diqqatga sazovordir. Termizning Jayxun daryosi bo'yida joylashgan, qo'rg'oni bor, shahriston va raboti bor. Bog'lari ko'p, mevalari mo'l-ko'l; aholisi tijorat bilan shug'ullanadi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Termiz temuriylar davrida gullab-yashnagan.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):**

1. Amir Temur Yevropa elchilari nigohida / Klavixo Rui Gonzales de. Buyuk Amir Temur tarixi (1403-1406); Tarj., U.Jo'rayev. Sultoniya arxiyepiskopi Ioann. Amir Temur va uning saroyi haqida xotiralar. Tarj., B.Ermatov; Mas'ul muharrir A.X.Saidov. - Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2007. – 208 b.
2. Bo'riyev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo (tarixiy-geografik lavhalar) // Mas'ul muharrir: A.O'rinboyev. – Toshkent. "O'zbekiston", 1997. – 186 b.
3. Ibn Arabshoh. Temur tarixida taqdir ajoyibotlari /Arab tilidan tarjima va izohlarni, so'z boshini U.Uvatov tayyorlagan. Mas'ul muharrir A.O'rinboyev. – Toshkent: Mehnat. 1992. –192 b.
4. Mirzayev J. Termiz tarixi. – Toshkent. 2001.
5. Sog'unuy A., Karomatov H. Temur tuzuklari. – Toshkent: Shodlik nashriyoti, 2020.